

**QASHQADARYO VILOYATI SHAROITIDA QORAMOLLAR TERI OSTI O'QRASI *HYPODERMA BOVUS* (DIPTERA)
TARQALISHI VA BIOLOGIYASINI O'RGANISHGA OID DASTLABKI MA'LUMOTLAR**

Bobonazarov G. Y.

Qarshi davlat universiteti Professori

e-mail: g.bobonazarov@qarshidu.uz

Xidirova Aziza

Qarshi davlat universiteti talabasi

Abstract: This article shows the spread of hypoderma bovis of cattle in the conditions of Kashkadarya region, as well as the hypodermatosis disease of cattle caused by the larvae of hypoderma bovis (Diptera), the fact that the disease has a natural local character, and as a result, it has a very large economic impact on cattle breeding. covers a lot of information about the damage, its biology and development, and gives an opinion.

Key words: Kashkadarya region, cattle, Hypoderma bovis, hypodermatosis, damage, problem, economy, veterinary medicine, sanitation.

Gipodermatoz – yirik shoxli qoramollarning parazitlar kasalligi bo'lib, uni qoramollar teri osti o'qrasi *Hypoderma bovis* (Diptera) lichinkalari qo'zg'atadi.

BMTning Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat bo'yicha tashkiloti (ingliz. Food and Agriculture Organization, FAO) ma'lumotlariga ko'ra (1984) gipodermatoz kasalligi dunyoning 55 mamlakatida qayd qilingan. Yevropa, O'rta Osiyo davlatlari, jumladan Xitoyda bu kasallik bilan bog'liq katta muammolar mavjud bo'lib, Avstraliya, Janubiy Afrika mamlakatlaridan teri osti o'qrasi bilan zararlangan qoramollarni import qilinishi gipodermatoz kasalligini tarqalishiga katta yo'l ochib bermoqda. Janubiy Amerika mamlakatlariga (Argentina, Braziliya, Chili, Ekvador, Salvador) va Yaponiyaga gipodermatoz tarqalishiga AQSH dan teri osti o'qrasi bilan zararlangan qoramollarni import qilinishi sabab bo'lmoqda (Tarry D. W., 1991).

Dunyoda yirik shoxli qoramollar gipodermatoz kasalligi bo'yicha ko'pgina ishlar qilingan. Rossiyada Beletskaya N.I. (1999), Stepanova YE. A., Yakubovskiy M. V. (2004) tomonidan teri osti o'qrasi invaziyasiga tashxis qo'yishning teri ostidan namuna olish, halqa probirka qo'yish va boshqa metodlar ishlab chiqilib gipodermatozni erta aniqlash imkoniyati yaratildi (Mavrin N. A., 2008).

Teri osti o'qralari zararlashi oqibatida yirik shoxli qoramollar vazni o'sishdan ortda qoladi, sog'in sigirlar mahsuldorligi kamayib ketadi va hayvonlar terisi sifati buziladi. Bir yil davomida gipodermatoz bilan kasallangan bir bosh sog'in sigirni sut berishi o'rtacha 80-200 l kamayadi, hayvon 13-18 kg gacha vazn yo'qotadi va undan olingan teri xomashyosi sifatiga 8 % gacha putur yetadi (Mavrin N. A., 2008).

Yirik shoxli qoramollar teri osti o'qrasi *Hypoderma bovis* O'rta Osiyoda, O'zbekistonda ham uchraydi. Bu borada Qozog'istonda Dosjonov T.N. (1957), Tojikistonda Baratov Sh.B. (1972), Qirg'izistonda Kamarli A.P. (1958), Ramashova L.F. (1962), O'zbekistonda Axunov A.X. (1967), Qodirova M.K. (1970) tomonidan o'rganilgan.

Bizning mamlakatimizda ham bu kasallik bilan asosan mahalliy qoramol zotlari zararlanadi. Teri osti o'qrasi *Hypoderma bovis* biologiyasi va unga qarshi kurash choralarini ishlab chiqilgan. Keyingi 50 yil ichida O'zbekistonda, xususan bizning tadqiqot hududimizda bu mutlaqo o'rganilmagan. Shuning uchun yirik shoxli qoramollar teri osti o'qrasi *Hypoderma bovis* ning bir qator xavfli va zararli jihatlari mavjudki ular biologiyasi va ekologiyasini har xil hududlar sharoitida o'rganish, alohida hududlar sharoitiga mos, ularga qarshi kurashning uyg'unlashgan, ekologik xavfsiz profilaktika chora - tadbirlarini ishlab chiqish dolzarb muammo hisoblanadi.

Biz kuzatish va tadqiqotlarni 2023-2024 yillarning bahor va yoz oylarida O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyatining janubiy cho'l zonasi xo'jaliklarida olib borildi. Qoramollarning gipodermatoz bilan zararlanish darajasi ular terisi ostida o'qra lichinkalarini uchrashi va to'planishi orqali aniqlandi. O'qra lichinkalari kasallangan mollar terisidan, ular boqiladigan yaylovlar, saqlanadigan inshootlar hamda go'stga so'yilgan qoramollar terisidan yig'ib olindi. O'qralarni tirik lichinkalari hayvon terisida ular hosil qilgan kapsulalarni siqib chiqarish orqali yig'ib olindi va tuproq to'ldirilgan maxsus idishlarda tabiiy sharoitda saqlandi. Voyaga etgan katta yoshdagi o'qralarni ular havoda parvoz qilayotgan paytlarida sachoklar orqali ushladik. Jami 117 bosh qoramol kuzatildi va 84 ta teri o'qralari yig'ildi.

Qoramollar teri osti o'qrasi *Hypoderma bovis* rivojlanish sikli aprel oyi oxirlarida boshlanib sentabr oyi oxirlarigacha davom etadi. Bitta urg'ochi o'qra qoramollarda terisi ustiga junlari orasiga 800 tagacha tuxum qo'yadi. Bir necha kun o'tib tuxumlardan lichinkalar chiqadi va ular hayvon terisini teshib, teri ostiga tushadi va u yerda 7-10 oy davomida migratsiya qilib rivojlanib, surunkali gipodermatoz kasalligini keltirib chiqaradi. Lichinkalar rivojlanish davri oxiriga kelib, asosan qoramollar tanasining yelka va bel qismi terisi ostida to'planadi. Bu holatni fevral va avgust oylarida kuzatish mumkin. Hayvon terisi ostida har bir yetilgan bir lichinka o'ziga kapsula hosil qiladi. Bu kapsuladan nafas olish uchun teri yuzasiga teshikcha ochilgan. Ularni shu xususiyati uchun ham teri osti o'qrasi deb ataladi. Bu lichinkalar bu kapsulalarda 30-83 kungacha yashashi mumkin va ular shu teshikchalarni yorib, tashqariga chiqib, yerga tushadi. Ana shu davrda hayvonlarni tinchligi nihoyatda buziladi, ayniqsa ular o'zini har tomonga urib, har tomonga chopib, podada turmaydi. Sog'in sigirlar esa sog'dirmay, hatto bolasini ham emizmay qo'yadi. Hayvon terisidan ajralib yerga tushgan lichinkalar 2-3 sutkadan so'ng g'umbakka aylanadi. G'umbakalar yuqori haroratda, 70-80 % namlikda 35-40 kunda imogaga aylanadi. Voyaga yetgan hasharotlar darhol havoga ko'tarilib ucha boshlaydi. Urg'ochi va erkak pashshalar havoda uchib qo'shiladi va urug'lanadi. Urug'langan urg'ochi o'qralar qoramollarni topib,

ular teri ustiga, junlari orasiga urug'langan tuxumlarini qo'yadi. Tuxumlardan lichinka chiqib, rivojlanish sikli boshlanadi. Voyaga yetgan individlari oziqlanmaydi va faqat o'rchish, urug'lanish vazifasini bajaradi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki yirik shoxli qoramollar teri osti o'qrasi *Hypoderma bovis*ning tarqalishi, rivojlanish sikli, ekologiyasi hamda morfobiologik, epidemiologik xususiyatlarini o'rganish veterinariya, sanitariyada amaliy ahamiyatga ega. Shuning uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim.

1. Teri osti o'qrasi bilan zararlangan qoramollarni import-eksport qilinishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

2. Yirik shoxli qoramollar teri osti o'qrasi *Hypoderma bovis*ga qarshi zamonaviy ximiyaviy va biologik insektitsidlarni qy'llagan holda kompleks-uyg'unlashgan ekologik xavfsiz, samarali agrotexnik, veterinariya-sanitariya tadbirlarni tashkil etish.

3. Mamlakatimizda naslchilik xo'jaliklarini takomillashtirib gipodermatozga chalinmaydigan zotdor qoramol zotlarini ko'paytirish lozim.

Quyida sanab o'tilgan jihatlatga etibor bersakkina yahshi natijaga erishishimiz mumkin. Etiborga olinayotgan barcha jihatlar albatta ushbu kasallikni ya'ni *Hypoderma bovis*ning tarqalishini oldini olishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Ахунов, Х.А. Особенности возбудителей, эпизоотологии гиподерматозов крупного рогатого скота и разработка мер борьбы с ними в Ферганской долине Узбекской ССР: автореф. дис. канд. вет. наук/Ахунов Х.А. 1967.-23 с.
2. Баратов, Ш.Б. Подкожные оводы крупного * рогатого скота в Таджикистане / Ш.Б. Баратов. Душанбе: Дониш, 1972. - 138 с.
3. Досжанов, Т.Н. Особенности биологии подкожных оводов крупного рогатого скота в условиях юга Казахстана / Т.Н. Досжанов // Тр. Казахского НИ вет. института. 1957.- т. 9. - С. 523 - 534.
4. Камарли, Н.Г. Подкожноооводовые болезни крупного рогатого скота в Киргизии: автореф. дисс. канд. вет. наук / Камарли Н.Г. Алма-Ата, 1968.- 42 с.
5. Маврин Н. А.Подкожный овод крупного рогатого скота в Западном регионе Российской Федерации: биология, меры борьбы: Автореф. дисс. канд. биол. наук / ВНИИВСГЭ. Москва. Звенигородское ш. 2008 г. – 26 с.
6. Мустафаев, А.С. Экономический ущерб, причиняемый кожным оводом народному хозяйству Азербайджана / А.С. Мустафаев // Тр. Азербайдж. НИВИ. 1960. - вып. 8. - С. 83 - 89.
7. Непоклонов, А.А. Оздоровление стад крупного рогатого скота от гиподерматоза / А.А. Непоклонов // Ветеринария. 2002. - № 10. - С. 3.
8. Ромашова, Л.Ф. Подкожные овода крупного рогатого скота в Киргизии и меры борьбы с ними / Л.Ф. Ромашова. Фрунзе, 1962.- 50 е.
9. Tarry, D.W. The effects of the U.K. eradication measures on residual warble fly populations / D.W. Tarry // Proc. of a symposium of COST 811 Project Commission of European Communities, Brussels., 1993. P. 21 - 27.
10. Rahimovna, O. N. (2024). SPECIES COMPOSITION OF ECTOPARASITES OF CHICKENS IN CONDITIONS OF THE SOUTHERN REGIONS OF UZBEKISTAN. *European science review*, (5-6), 3-7.
11. Рахматуллаев, А. Ю., Давронов, Б. О., Норкobilova, З. Б., & Омонова, Н. Р. (2021). Фауна Дождевых Червей В Узбекистана. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(5), 310-314.
12. Карабекова, Д. У., Исакова, С. А., & Остащенко, А. Н. (2019). К ЭКОЛОГО-ФАУНИСТИЧЕСКОМУ ИССЛЕДОВАНИЮ ГЕЛЬМИНТОВ ГРЫЗУНОВ (RODENTIA) ЧУЙСКОЙ ОБЛАСТИ. *Исследование живой природы Кыргызстана*, (1-2), 51-56.
13. kizi Norkobilova, Z. B., Rakhmatullayev, A. Y., & oqli Boyjigitov, O. D. (2023). PRELIMINARY INFORMATION ABOUT DRAGONFLIES FAUNA DISTRIBUTED IN KASHKADARYA REGION. *World of Scientific news in Science*, 1(3), 5-14.
14. Toshov, O. J. (2021). BIOTSENOTIC RELATIONS OF REPTILES ANIMALS IN THE DESERT ECOSYSTEMS OF THE SOUTHERN REGION OF UZBEKISTAN. *Экономика и социум*, (4-1 (83)), 423-425.
15. Тошов, У. Ж., & Самадова, М. П. (2021). КАШКАДАРК ВИЛОЯТИНИНГ ЧУЛ ЭКОСИСТЕМАЛАРИДА РЕПТИЛИЯЛАРНИНГ БИОЦЕНОТИК АЛОЦАЛАРИ. *Журнал естественных наук*, 2(1).
16. Djumayevich, T. U. (2019). The cycles of the development of the reptile helminthes and the ecology of their population. *Вестник науки и творчества*, (2 (38)), 79-82.
17. Abdikayumovna, X. G. (2023). Mazkur maqolada Respublikamizdagi suv omborlarda uchraydigan mollyuskalarning turlari, yashash sharoitlari, tuzilishi, faunasi, ekologiyasi, tarqalishi va inson hayotidagi ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. *JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH*, 2(5), 78-81.
18. Raximovna, O. N., Yadgarovich, B. G., & Qizi, I. Z. I. (2024). UY PARRANDALARI ЕКТОПАРАЗИТ ВО'G'IMOYOQLILARIDAN MATERIAL YIG'ISH VA METODIKASI. *In The World Of Science and Education*, (20 сентябрь БН), 3-6.
19. Бобоназаров, Г. Я., & Омонова, Н. Р. (2021). OZBEKISTONDA YIRIK SHOXLI QORAMOLLAR TERI OSTI OQRASI HYPODERMA BOVUS (DIPTERA) ORGANILISHIGA DOIR. *Журнал Биологии и Экологии*, 3(1).
20. Babonazarov, G. Y., Omonova, N. R., Orziyeva, Y. M., & Khosilova, G. A. (2022). Economic Damage Caused by Scabies Itch Mite, *Sarcoptes Scabiei* (Acariformes: Sarcoptidae) to the Wool Production of Sheep. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 2433-2436.

